

MAKEDONIYALIK ALEKSANDRNING SHARQQA YURISHLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15454742>

Tirkashboyeva Dildoraxon

Andijon Davlat Universiteti Tarix fakultet

1-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqola Aleksandr Makedonskiyning So'g'd va Samarqanddagi janglar, uning janubiy va markaziy Osiyo hududlariga amalga oshirgan harbiy yurishlari, uning harbiy yurishlari natijasida Yunon madaniyatining Sharqqa kirib kelishi, mahalliy va yunon madaniyatlari uyg'unlashuvi masalalari yangi faktik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar

Aleksandr Makedonskiy, Makedoniya shohi Filip II, Sharq yurishlari, O'rta Osiyo, Issa jangi, Doro III, Samarqand, So'g'diylar, Ahamoniylar imperiyasi, Spitamen.

Makedoniyalik Aleksandr insoniyat tarixida o'zining yirik harbiy yurishlari, siyosiy faoliyati va madaniy ta'siri bilan alohida o'rin egallagan shaxsdir. U o'zining qisqa umrida Sharq va G'arb tamaddunlari o'rtasidagi ko'prik bo'lgan, qadimgi dunyo tarixiga o'chmas iz qoldirgan. Uning harbiy yurishlari nafaqat hududlarni zabt etish, balki madaniy almashinuv va sivilizatsiyalar to'qnashuvi bilan ham ahamiyatlidir.

Tarixiy manbalarda Aleksandr haqida juda ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Qadimgi tarixchilardan Arrian "Aleksandr anabasisi", Plutarx "Parallel hayatlar", Kvint Kurtsiy Ruf "Aleksandrning harbiy yurushlari", Strabon "Geografiya", Diodor Sitsilskiy kabi olimlar uning hayoti va yurishlarini tafsilotlarini yozib qoldirgan. Ularning asarlari bugungi kunda ham Aleksandr shaxsiyatini o'rganishdagi muhim manbalar hisoblanadi.

Makedoniyalik Aleksandr shaxsiyati va yurishlari haqida nafaqat qadimgi tarixchilarning asarlarida, balki zamonaviy tarixshunoslikda ham ko'plab ilmiy maqolalar chop etilgan. Jumladan, A. Rahmonov, Benjamin Garstad, Gul Rassel va boshqalar o'zlarini ilmiy maqolalarini chop etganlar.

Makedoniyalik Aleksandr Makedoniya shohi Filip II ning Elippa shohining qizi Olimpiadadan tug'ilgan. Filip II miloddan avvalgi 359-yilda Makedoniya taxtiga o'tirgan [10. 286]. U bir qator sohalarda islohotlar olib boradi.

U harbiy sohada saf tizimi falangani tuzadi. Aleksandr o'zining mahorati bilan miloddan avvalgi 338-yildagi bo'lib o'tgan jangda otasining g'alabasini taminlaydi. Filip II sharqqa yurish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan paytda qizining to'yida fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Taxtga 20 yoshli Aleksandr o'tiradi. Aleksandrni ustoz taniqli olim Aristotel bo'lgan. Aleksandr 13 yoshidan boshlab 3 yil davomida olimdan falsafa, tibbiyot, san'at, yunon adabiyoti, etika va geografiyadan ta'lim olgan. Otasi boshlagan harakatlarni Aleksandr davom ettiradi. Aleksandr sharqqa tomon yurishlarni miloddan avvalgi 334-yildan boshlaydi va bu yurish o'n yil davom etadi [3. 1-2]. Bu urushga makedon qo'shinlari ikki yil tayyorgarlik ko'radi. Aleksandrning qo'li ostida Antipatr, Ptolomey Lag va Parmenion kabi sarkardalar 30 000 piyoda askar, 5 000 otliq va 160 ta jangovor kema bo'lgan. Aleksandr Sharq mamlakatlarida Zulqarnayn nomi bilan ham mashhur. Bu laqab tojining ikki cheti shoxsimon bo'lganligi sababli "ikki shohli" yoki "ikki tomon ham G'arb ham Sharq hukmdori" degan ma'nolarni anglatadi [9. 51] Aleksandrni bosqini davrida hozirgi O'rta Osiyo hududida saklar, baqtriyaliklar, so'g'diylar va xorazmliklar istiqomat qilar edilar. So'g'diylar Samarqand hududida qilganlar va shaharni Smarakansa deb nomlaganlar. So'g'diylar dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanganlar. So'g'd tilida so'zlashganlar. Ktesiyning keltirishicha "Baqtriyaning markazi Baqtro shahri bo'lgan (hozirgi Balx). Baqtro qalin mustahkam mudofaa devor bilan o'ralgan bo'lgan" (Plutarx-Persika) Aleksandr birinchi bo'lib ahamoniylar davlatiga yurish qiladi. Bu davrda ahamoniylar shohi Doro III bo'lgan Yurish qilishdan asosiy sabab Kichik Osiyodagi yunon shaharlarini forslardan ozod qilish bo'lgan. Doro III va Aleksandr o'rtasida uch marotaba jang bo'lib o'tgan.

1-jang miloddan avvalgi 334-yilda Granik daryosi bo'yida bo'lib o'tgan. Aleksandrning qo'shini forslar tomonidan o'rab olinadi. Forslik sarkarda qilichi bilan Aleksandr dubulg'asining tojini kesib oladi. Aleksandrning o'limi muqarrar bo'lib qoladi, o'sha paytda do'sti Klit uning hayotini saqlab qoladi. Forslar bu jangda 20 000 dan ortiq qo'shinidan ayriladi [3. 2] Shunda Aleksandr uchun Kichik Osiyo tomon yo'l ochiladi. Aleksandr qo'shinlari Kichik Osiyo markazidagi Kapadokiyaning egallaydi hamda qishni shu yerda o'tkazdilar.

Iss shahri Kilikiya shaharlaridan biri bo'lib, dengiz bo'yida joylashgan. Miloddan avvalgi 333-yilning kuzida bu shahar yaqinida Doro III va Aleksandr qo'shinlari to'qnashadi. Aleksandrning qo'shini 30-40 ming forslarning qo'shini esa 120-130 ming kishi bo'lgan [3. 3]. Bu makedon qo'shinlari g'alaba qozonadi. Fors qo'shinlari tarqalib ketadi, Doro III qochib ketadi. Makedon qo'shinlari Eron podsho qarorgohini egallaydilar, Doro III ning ayoli va ikki qizini asir oladilar. Aleksandr Fors davlati poytaxtda ziyofat tashkil etadi, lekin mehmondorchilik

mast holatda betartiblikka aylanib ketadi. Natijada Aleksandr qirolik saroyini yoqib yuborishga buyruq beradi [6. 3-4]. Keyingi jang miloddan avvalgi 331-yilda Gavgamelda bo'lib o'tadi va Aleksandr g'alabasi bilan tugaydi. Bu jangdan so'ng makedon qo'shinlari Susan, Bobil va Persopol shaharlarini egallaydi. Doro avval Midiyaga, keyin esa Baqtriya qochib ketadi. Makedon qo'shinlari miloddan avvalgi 329-yilning bahorida Hindikush tog'lari orqali O'rta Osiyo hududlariga kirib keladi. Bu davrda Baqtriya Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. Ahamoniylar davlatni satrapliklarga bo'lganlar va har bir viloyatni satrap boshqargan. Baqtriya satrapi Ahamoniylar urug'idan bo'lgan Bess bo'lgan. Bess Aleksandr yaqinlashib kelishi haqida eshitib Oks daryosidan kechib o'tadi va kemalarni yondirib Navtaka so'g'diylari yeriga yo'l oladi. U Doro III ni zaharlab o'ldiradi va o'zini Artakserk nomi bilan podsho deb e'lon qiladi [12. 55-59]. Dastlab baqtriyalik Oksiart, so'g'dlik Spitamen va fors Datafarnlar ham Bessning niyatini anglab yetmaydilar va uning tarafdori bo'ladilar. Aleksandr qo'shinlari qoplarga somon-hashak to'ldirib, ular orqali besh kun davomida Amudaryodan kechib o'tadilar va Nautaka (Qashqadaryo) tomon yo'l oldilar [5. 123]. Shu yerda Bess va ittifoqchilari o'rtasida nizo vujudga keladi. Bessni asl niyatini bilishgandan so'ng uni Aleksandrga topshirishga qaror qiladilar. Spitamen Oksiart va Datafarnlar Bessni kishanlab Nautakada qoldiradilar o'zlari esa mamlakatning ichki viloyatlariga chekinadilar. Aleksandr Bessni qo'lga tushiradi. Uni sarkardasi Ptolomeyga topshiradi va Eronga olib borib qatl ettirishni buyuradi. Aleksandr Nautakadan so'ng So'g'diyaning poytaxti Samarqandga yurish qiladi va uni egallaydi. Samarqandda unga qarshi miloddan avvalgi 329-yilning kuzida qo'zg'alon ko'tariladi. Qo'zg'alonni bostirish uchun sarkarda Farnux boshchiligida qo'shin yuboradi. O'zi esa saklarga yurish qiladi. Bu ikki yurish ham mag'lubiyatga uchrayadi. Miloddan avvalgi 328-yilning bahoridan yunon-makedonlarga qarshi kurashni davom ettirdilar. Ahvol jiddiylashganidan xavotirga tushgan Aleksandr 30 000 kishilik qo'shinini 5 guruhga bo'lib, bu guruhlarga ishonchli sarkardalar- Gefestion, Ptolomey Lag, Perdikka, Ken va Artabozlarni boshliq etib tayinladi [5. 124]. Aleksandr qo'shini Samarqandni egallash uchun yil kerak bo'ldi. Dastlab, Makedonlar bu shaharni sulh yo'li bilan egallaydi. So'ng bu yerda kichik lashkarni qoldirib, o'zi Sirdaryoga yo'l oladi. U O'rta Osiyoda birinchi bor Ustrushonada Samarqand va Xo'jand oralig'ida tog'liklarning qattiq qarshiligiga duch keladi. Bu janglarda Aleksandr juda shafqatsizlik qilgan Arrian bergan ma'lumotlarga ko'ra u 30 ming mahalliy aholidan 22 ming kishini qirib yuborgan. Kiropol shahrini mudofaa etishda esa 8 000 kishi halok bo'lgan. Shu paytda Samarqanddan chopar kelib Spitamen boshchiligida qo'zg'alon ko'tarilganligi haqida xabar beradi. Spitamen Samarqandni egallab, Alesandrni bu yerda qoldirgan Farnux

qo'mondoligidagi 3 000 piyoda, 800 otliq qo'shinlarini qirib tashlaydi. Miloddan avvalgi 328-yilda Aleksandr Samarqandni ikkinchi marotaba egallaydi. Ma'lumotlarga qaraganad Aleksandr qo'zg'alon ko'targan so'g'diylarni yengib, 120 ming aholini qirib yuboradi [12. 55] Aleksandr Doro qo'shinlari bilan kurashgandan ko'ra Spitamen bilan kurashish qiyinligini tushunib yetadi. Spitamenning askarlarining chaqqonligi otlarning tezligiga mos edi. Bu jangda Aleksandr 2 000 piyoda va 300 suvoriysidan ayriladi, bu talofotni u hammadan yashiradi. [13. 107]

Spitamenning halokati haqida ikki hikoya mavjud. Haqiqatga yaqinrog'i Arrianning keltirishich Skif-massagetlar yengilganidan so'ng o'zlari bilan birga ittifoqdosh bo'lib dushmanga qarshi kurashgan baqtriyaliklar va so'g'diylar yuklarini talaydilar va qochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga Aleksandr dashtga yurish boshlar emish degan xabar kelgach Spitamenni o'ldiradilar va boshini shoxga keltiradilar. Shu yo'l bilan ular Aleksandrning hujumini oldini olmoqchi bo'ladilar. Uning halokati haqidagi yana bir hikoya Kvint Kurfsiy Rufning asarida keltiriladi. Bunga ko'ra Spitamen ayolini juda qattiq sevgan, ayoli ham doimo uning yonida bo'lgan. Erining boshiga tushgan hsmma qiyinchilik, sarsonlik, quvg'indagi hayotini u bilan o'tkazadi. Bunday hayot joniga tekkach Spitamenni Aleksandrغا taslim bo'lishga undaydi. Natijada ikkalasi janjallashib qoladi. Xotini esa endi erining so'zidan chiqmaslikka vada beradi, Spitamen ayolining vadasiga ishonadi va kunduzi ziyofat uyushtirishga buyruq beradi. Spitamen ziyofatda mast bo'lib uxlab qoladi shunda ayoli qilich bilan boshini kesib oladi. Qonga belangan erining boshini jinoyatga sherik bo'lgan qul bilan makedon qo'shinlari joylashgan lagerga olib keladilar. Aleksandr bundan xabar topgach ayolni haydab yuborishni buyuradi. Eriga xiyonat qilgan menga do'st bo'larmidi-deydi Aleksandr. Xorazam shohi bu paytda Farasman bo'lgan va u Aleksandr bilan do'stlik aloqalarin o'rnatishga urungan. Manbalarda uni 1500 otliq suvoriy bilan Aleksandrغا bosh egib kelganligi yoziladi. "Iskandarnoma" da Xorazmshoh "Feruzbax va Jamshidshoh o'z askarlari bilan yordamga" kelganligi takidlanadi. Arrian esa "Xorazmliklar shohi Farasman bosh egib keldi deydi [12. 56]. Xorazmshoh Farasman donoligi va uzoqni ko'ra bilganligi bilan o'z mustaqilligini saqlab qola olgan. U Aleksandr huzuriga keladi. Aleksandr bilan ittifoq tuzishni va Qora dengiz tomon yurish qilishni taklif etadi. Bu davrda shoh qo'zg'alonlar bilan band bo'lganligi tufayli ittifoq tuzadi lekin hozir Pontiga yurish qilish vaqti emasligini aytadi. Aleksandr uchun O'rta Osiyoni egallash oson kechmadi. Birgina Politimet daryosi bo'yidagi janglarda makedon qo'shinlari ikki marta talofot ko'radi. Ayniqsa Kiropolisni egallash paytida boshidan va bo'ynidan yaralanib azob chekadi. Uning lashkarboshisi Karan boshliq qo'shinlari ham qirib

tashlanadi. Bu voqealardan so'ng ruhiy kasallanadi va xotirasi ancha zaiflashadi. Natijada u o'ziga eng yaqin bo'lgan sarkardasi Klitni achchiq ustida o'z qo'li bilan o'ldiradi. Klit Dronidning qizi Lanikaning ukasi bo'lgan. Lanika Aleksandrni tarbiyalab voyaga yetkazgan ayol edi. U o'zi qilgan ishni kotara olmaydi, uch kecha-yu uch kunduz narsa ham yemaydi va tashqariga ham chiqmaydi. Lanika oldida o'zini aybdor his etadi. U ruhiy tushkunlikni boshdan o'tkazadi. Bunga sabab esa O'rta Osiyoning erksevar va ozodlikka intiluvchi mard va jasur xalqlarning kelgindi dushmanlarga qarshi mardonavor kurashi edi. Shunda u hiyla yo'lga o'tadi. U mahalliy xalq vakillari, birinchi navbatda hukmdor oqsoqollar bilan til topish yo'llarini izlaydi. Aleksandr Oksiart bilan yaqinlashgach Baqtriya va So'g'diyonadagi 4ta qal'ani: Sug'd, Sizimirta, Arimaza, Xorienni egallaydi. Aleksandr Baqtriya zodagoning qizi Roksanaga uylanadi va uni malika deb e'lon qiladi. Aleksandr miloddan avvalgi 327-yilda mahalliy aslzodalardan Oropiyani So'g'd podsholigiga tayinlaydi va Hindikush tog'lari orqali Hindistonga kirib boradi. Hindistonni ham egallagan Aleksandr qo'shini bilan miloddan avvalgi 324-yilda O'rta Osiyoga qaytadi. Shu yili Suzada katta ommaviy to'y uyushtiradi. Uning askarlaridan 10 min jangchi, shu jumladan, shohga yaqin bo'lgan sarkardalar Gefestion, Krater, Ptolomey, Salavka, Evmen, Perdikka va boshqalar sharq ayollariga uylanadi [8. 56] Uning o'zi esa Doroning qizi Stateiraga uylangan. Ba'zi manbalarda yozilishicha Aleksandr shu fursatdan foydalanib o'z askarlarining qarzlari ham to'lab beradi [6. 4] Arrianning yozishicha jangchilar Doroning ayolidan so'ng Osiyoda bunday go'zal qizni ko'rmaganliklarini aytishadi. Oksiart bundan xabar topgach juda sevinadi va shox huzuriga tashrif buyuradi. Aleksandr Oksiartning ayblarini kechirib uni Baqtriya satrapi etib tayinlaydi. Buni eshitgan Xorien Aleksandrغا jangsiz taslim bo'ladi va o'z qal'asini hokimi bo'lib oladi. Ana shu tariqa Aleksandr boshqa qal'alarni ham birin-ketin egallay boshlaydi. Plutarx Aleksandrning yerli xalqurfoodatlar va madaniyatiga hurmat bilan qaraganini takidlaydi. Hatto u aholining milliy kiyimlarini kiyib yurganligini va jangchilarini ham yerli xalqlarni urf -odatlarini o'rganishlarini takidlaydi [8. 55]

Aleksandrning harbiy yurishlaridan so'ng Sharq va G'arb o'rtasida savdosotiq va madaniy aloqalar rivojlana boshlaydi. Siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi natijasida mahalliy va yunon madaniyatining qo'shilish jarayoni boshlandi. Bu jarayon tasirini qurilish, kulolchilik, tasviriy san'at, tangashunoslik, me'morchilik hamda diniy e'tiqodlarda ko'rish mumkin. O'z navbatida yunonlar qadimgi Sharqning ko'plab madaniy yutuqlarini qabul qildilar va mahalliy aholi madaniyatiga ham ta'sir o'tkazdilar. Aleksandrning harbiy yurishlari O'rta Osiyoga ellin madaniyatini olib keldi. O'rta Osiyoning janubiyviloyatlari yirik ellinistik davlatlar tarkibiga kirib, yangi siyosiy ma'muriy

tartib joriy etildi. Bu tartib O'rta Osiyoda madaniy, iqtisodiy, tovar-pul munosabatlarining rivoji uchun turtki boldi. O'rta Osiyoda mahalliy va ellin madaniyati uyg'unlashuvi sodir bo'ldi [5. 125]

Aleksandr istilosidan keyin paydo bo'lgan Baqtriya podsholigi arxeologik jihatdan o'rganilmagan deyish mumkin. Bu podsholik mahalliy asosda paydo bo'lib ellin ta'siri kuchli bo'lgan, natijada u tamomila o'ziga xos ellinizm nusxasidan biri bo'lgan [1. 177] Aleksandr o'z saltanatida 70 ta shaharni barpo etgan, jumladan Markaziy Osiyoda 12ta shahar qurdirgan [14. 145]

Makedoniyalik Aleksandr O'rta Osiyo tarixida qadimgi dunyo-antik yoki ellinistik davrni vujudga keltiradi. Antik davrda O'rta Osiyo xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy xayotida katta o'zgarishlar ro'y bergan. O'lka viloyatlari Qadimgi Sharq va Gretsiya, Makedoniya davlatlari bilan keng madaniy va savdo-sotiq aloqalarida bo'lgan [7. 155].

Bu davrda sopol buyumlarni ishlash texnikasi takomillashgan. Yunonlar o'ziga xos idishlardan foydalanganlar. Amfora – og'zi tor, tagidan yuqoriga tomon kengaytirilib ishlangan, ikki dastasi bo'lgan sopol idish. Pifos- katta sopol xum bo'lib, unga bemalol odam siqqan. Katta oifoslar yerga ko'milib, undan ombor sifatida foydalanganlar. Yunonlarda sopol buyumlarga qora lqk bilan ishlov berish keng tarqalgan. Idishlarda mifologiyaga doir yoki hayotdan olingan manzaralar tasvirlari ishlangan [4. 96]

Makedoniyalik Aleksandr nafaqat o'z davrining yirik harbiy sarkardasi, balki Sharq sivilizatsiyalari o'rtasidagi ko'priki bo'lgan shaxs sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Uning qisqa umriga qaramay, keng hududlarni bosib olishi va bu yerlarni boshqarishdagi yondashuvi ko'plab tarixchilar, olimlar va tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlariga asos bo'lgan.

Ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalarda Aleksandr shaxsiyati, yurishlarining strategiyasi, ijtimoiy va madaniy ta'siri turli nuqtai nazardan o'rganilgan. Ayrim tadqiqotlarda u jahongir sifatida ulug'lansa, boshqalarda bosqinchi sifatida tanqidiy baholangan. Biroq barcha yondashuvlar bir jihatda yakdil – Aleksandrning faoliyati tarixiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatgan, dunyo tarixining shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Shu bois, uning harakatlari va qoldirgan merosini chuqur o'rganish nafaqat tarixshunoslik, balki siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik va falsafa sohalari uchun ham dolzarb bo'lib qolmoqda

ЦИТИРУЕМЫЕ ТРУДЫ

1. **А .В.Арциховский** Археология асослари [Kitob]. - Toshkent : [n.m.], 1970. - O'qituvchi.
2. **A, Rahmonov.** Buyuk Aleksandrning Markaziy Osiyoni bosib olishi [Qayd daftari] // Xalqaro Rasmiy Ta'lim. - 2022 yil.
3. **N, Egamberdieva.** Arxeologiya [Kitob]. - toshkent : Fan va texnologiyalar, 2011. - bet. 96-97.
4. **Б, Ешов. А,Одилов.** Узбекистон тарихи [Kitob]. - 2013.
5. **Garstad Benjamin** [Qayd daftari]. - 2018 yil.
6. **Ж, Кабиров. А, Сагдуллаев.** Урта Осиё археологияси [Kitob]. - Toshkent : O'qituvchi, 1990. - bet. 155-156.
7. **Sh, Karimov. R,Shamsutdinov.** Vatan tarixi [Kitob]. - Toshkent : Sharq, 2010. - bet. 55-58.
8. **Х, Мо'minov, R. Shamsutdinov** O'zbekiston tarixi [Kitob]. - 2019.
9. **R, Rajabov.** Qadimgi dunyo tarixi [Kitob]. - Uzbekistan : [n.m.], 2009.
10. **Rassell Gul** Tibbiy dilemmaning shoxlari: Makedoniyalik Iskandar [Qayd daftari]. - 2004 yil. - bet. 159-165.
11. **R, Shamsutdinov. S, Xoshimov.** Vatan tarixi [Kitob]. - 2020. - bet. 55-59.
12. **Fozila Sulaymonova** Sharq va G'arb [Kitob]. - Tashkent : [n.m.], 1997. - bet. 107-109.
13. **Farhod Sultonov** Qadimgi davr [Kitob]. - Toshkent : [n.m.], 2006. - bet. 144-145.